

KOLLEKSIY KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQUISH.

Ulug'boboeva M. M.

Farg'ona davlat texnika universiteti (O'zbekiston, Farg'ona)

E-mail: mavjudaulugboboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish jarayoni, uning asosiy bosqichlari hamda dizayn g'oyasini shakllantirish tamoyillari yoritilgan. Kolleksiya yaratishda mavzuni tanlash, rang yechimlarini belgilash, material va fakturalarni uyg'unlashtirish hamda maqsadli auditoriyani aniqlash muhim jihatlarda sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy moda tendensiyalarining kolleksiya konsepsiyasiga ta'siri ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kolleksiya, dizayn, konsepsiya, moda, tendensiya, rang, material, g'oya

Аннотация: В статье рассматривается процесс разработки концепции коллекции, основные этапы её формирования и принципы создания дизайнерской идеи. Особое внимание уделяется выбору темы, подбору цветовых решений, сочетанию материалов и фактур, а также определению целевой аудитории. Анализируется влияние современных модных тенденций на концепцию коллекции.

Ключевые слова: коллекция, дизайн, концепция, мода, тенденция, цвет, материал, идея

Abstract: This article explores the process of developing a collection concept, including its main stages and the principles of forming a design idea. Key aspects such as theme selection, color solutions, material and texture harmony, and target audience definition are discussed. The impact of contemporary fashion trends on the collection concept is also analyzed.

Keywords: collection, design, concept, fashion, trend, color, material, idea

Zamonaviy dizaynni muammolarida ijodiy konsepsiya muammosi (asosiy g'oya, loyihalash maqsadi va vazifalarini, ma'naviy yo'lini) markaziy o'rinni egallaydi. Konseptuallik – bu loyiha madaniyatning mohiyatini asoslaydigan umumiy ijodiy ko'rsatmadir. Ijodiy konsepsiya loyiha qiyamati va ma'naviy mazmunini belgilaydi. Ijodiy konsepsiyaning mazmuni va xarakteri nafaqat muallifni shaxsiy dunyoqarashini bilan, balki loyiha madaniyati va jamiyatni rivojlanish asosiy rag'batlari bilan bog'liq. Odatda, dizaynda konsepsiyalar muhim muammolarni ifodalaydi, ular jamiyatni va insonni hayajonlantiradi. Dizayn insonlarning ehtiyojini hisobga olishi zarur va ularning muammolarini echishda o'z hissasini q'oshmog'i lozim.

Kostyum dizaynida mavjud konsepsiyalar, odatda, o'z davr dizayning asosiy muammolarini oqimidadir va turmush tarzini o'zgarishi umumiy rag'batlari bilan bog'lanishidadir. Ammo, bu umumiy rag'batlar dizaynda har xil mualliflar konsepsiyalarida o'zlashtiriladi, ya'ni dizaynerlar buyumning funksiyasiga o'zgacha qarashadi, garderobini ta'minlash turli konsepsiyalarini tarafdorlari bo'ladi, har xil shakllantirish usullarni qo'llashadi, turli turmush tarzda yashayotgan insonlarga o'z kiyimini taklif etishadi. Bundan tashqari, kiyim dizaynini o'ziga xosligi shundaki, konsepsiya matnda emas, balki mavjud shaklda o'z ifodasini bayon etadi. Modani mavsumiy o'zgarish ritm an'anasi kiyim dizaynida ijodiy konsepsiyasini asosiy o'zlashtirish shakli – modellar namoyishdir. Konseptuallik faqat kiyim modellashtirishda emas (garchi bu eng muhimi bo'lsa ham), balki modellarni tanlashda, muayyan siymo yaratishda (soch turmak, grim va b.), musiqa jo'rligida va namoyish o'tqizish joyda namoyon bo'ladi. Dizaynerlarning muallif ijodiy konsepsiyalari, odatda, loyiha madaniyatni rivojlanishi umumiy tendensiyalaridan holi emas va dizaynda mavjud u yoki bu

umumiy konsepsiyalarga qayd qilinmaydi. Zamonaviy dizaynda ko'pgina ijodiy konsepsiyalar mavjud.

-Mualliflik konsepsiyalaridan bir qator yo'nalishlargacha (minimalizm, dekonstruktivizm). Ba'zi dizaynerlar modani tez o'zgarish tarafdorlari, boshqalar esa klassik uslubni yaratishga intiladi. Yahit estetik namunalar, transformasiya etish imkoniyatini qo'llashga harakat qilishadi. Dizaynerlar faoliyati boshqa sohalrga nisbatan ham ko'p bilim salohiyatiga ega bo'lishi talab etiladi. San'at va fan yo'nalishiga oid bilimlarni puhta egallashi lozim. San'atning har bir turini g'oyaviy, ijodiy asosi kompozitsiyadir.

Zamonaviy badiiy jarayonda "prêt-a-porte" va "yuksak moda" hamisha o'ziga chorlovchi serjilo xususiyatiga ega. U allaqachon sanoatning amaliy ijrosi chegarasidan chiqib, yorqin, o'ziga xos g'aroyib tantanaga aylangan. Uning namoyishi bizni xayratga soladi, o'ylantiradi, xayajonlantiradi, olingan har qanday taassurot samarasi – yanada chorlovchi diqqat e'tiborini qamrab oluvchi tomoshadir. Madaniyat dunyosi ramzlar, belgilar va ishoralar dunyosidir. Inson libosni tabiatdagi noyob ta'sirlardan saqlanish vositasi sifatida idrok eta boshlaganidan buyon u insonning badiiy shakllar kashf etish, o'zida qadimiy amaliy va estetik didni mujassamlashtirish buyumlarni yaratish qobiliyatning ramzi bo'lib qoldi. Respublika dizaynerlari yaratgan liboslarida milliylikka alohida e'tibor qaratilmoqda.

Giambattista Vallining to'plamida romantika uslubining "yuksak moda" yo'nalishini ko'rishimiz mumkin. Uning liboslaridagi nafis gullarni shunchalik mahorat bilan joylashtirganki, libosga o'zgachabashang ko'rinish va bahor nafasini olib kelgandek bo'ldi. Valli o'z kolleksiyalarda ochiq ranglardan foydalangan.

Dizaynda siymolik "Siymo" atamasi zamonaviy ist'molda bir necha ma'noda qo'llaniladi. Har bir tasvirlarni gul, pribor, tog' manzarasi rasmini keng ma'noda "siymo" deb atashadi. Zamonaviy dizaynda dizaynerlar "ot kutyur, prêt –a-porte" kolleksiyalarida juda ko'p siymo yechimlarini namoyish etishadi.

Istiqbolni rivojlanishi nazariy (konsepsiya, gipoteza) ni yechish loyiha tajriba prinsiplari tuzishdan iborat. Tanlangan modellarga baholash yo'li tanlandi. Yangi turdagi milliy liboslar insonning turmush tarzini, shahsning turini, ijtimoiy shu jumladan estetik qoidalari bilan bog'liq ob'yektiv va sub'yektiv boyliklarni va insonlarni psixologik kayfiyatiga ta'sir ko'rsatadi, ifodalab beradi.

Ramz - ikki ma'noga ega qandaydir buyumni nomidan qilingan tasvir, u mutlaqo boshqa shakl yoki abstrakt tushuncha bo'lishi mumkin. Ramz, belgi, (harf, nomalar, raqam va hokazo). Ramz va belgilarni eng muhim fuksiyasi grafik tasvirlar orasida aloqa barpo etish. Dizayning konsepsiyalarini loyihalash quyidagi yo'llar bilan bog'liq:

-baholash yo'li loyihalashni jamiyat va insonning turmush-tarzi, estetik qoidalari, ob'yektiv va sub'yektiv boyliklarni yaratish faoliyatini ko'rib chiqadi.

-tizim yo'li – moddiy, funksional, ijtimoiy, madaniy elementlarini o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqadi.

-muhit yo'li inson fazoviy buyum muhitini hayotiy atrofni o'zlashtirish natijasini ko'rib chiqadi.

Komplekt - muhit yo'li inson fazoviy buyum muhitini hayotiy atrofni o'zlashtirish natijasini ko'rib chiqadi. *Komplekt* bir xil, yoki xar xil materialdan tayyorlangan, nimaga mo'ljallangani va uslub xal etilish umumiy bo'lgan to'la bir sidra buyumlar to'plami; komplektidagi ayrim buyumlarni

mo'ljallanganligi va uslub xal etilishi o'xshash boshqa buyumlarga almashtirish mumkin. *Komplekt*—bu ochiq sistema bo'lib, ayrim buyumlarni unga qo'shish va undan olish mumkin.

O'rta maktab yoshidagi qiz bolalarning kiyimlari to'g'ri siluetda yoki bel chizig'idan pastga tomon kengaygan bo'ladi, 9-10 yoshda esa qomatga nisbatan sal kengroq bo'ladi. Qismlarning konstruksiyasi xar xil. 7-8 yoshdagi qizlarning ko'ylagi bel chizig'ining teparog'idan, biroq tabiiy xolatiga yaqin qilib tikilgani ma'qul. 9-11 yoshli qizlarning kiyimi esa qomatga nisbatan sal kengroq bo'lib, turli vositalar yordamida pastga qarab kengayib boradi. Ko'ylak bel chizig'i bo'yicha kesmali bo'lishi xam mumkin, bunday tipdagi ko'ylakning old tomoni yaxlit bo'lib, bel chizig'i bo'yicha ortidan yoki yonidan kesim bo'ladi. Pastki qismi to'g'ri siluetda tikilgan bluzkalarining kesmasi esa bel chizig'idan birmuncha pastroqqa tushiriladi. Ko'ylaklarning bunday joyiga qopqoqlar, cho'ntaklar, plankalar, xlyastiklar qo'yiladi.

Qizlar qomati shakllanishining afzalliklari shundaki, kompozitsiya markazini kiyimning yuqori qismida joylashtirish imkonini beradi, bu yerda turli xildagi koketkalardan burmalar va releflar yordamida zarur bo'lgan xajmni yaratish mumkin. Bo'yin kesmasi va yoqalarning shakli xar xil bo'ladi. Ko'proq oddiy stoykalar va stoykali yoqalardan foydalaniladi. Yeng shakllari xam kiyimning bichimiga qarab xar xil bo'ladi. Kompozitsiya markazi kiyimning bel qismida joylashishi xam mumkin. To'g'ri siluetdagi kiyimlarda, bel qismidan boshlab kengayib boruvchi yubkalarda u ozgina pastga tushgan belbog' vazifasini o'taydi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ushbu maqolada yaratilayotgan yangi modellar kolleksiyasi konsepsiyasini ishlab chiqishda turli usullar borligi, ularning bir biridan farqi va bu usullardan foydalanish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Adabiyotlar.

1. N. S. Gaipova, M. A. G'afurova, Q. M. Abdullayeva. "Tikuv buyumlarini loyihalash, modellar, badiiy bezash". T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006 y.
2. U. F. Abdurahimovna. "Kostyum kompozitsiyasi asoslari". Toshkent. 2014 yil.
3. CREATION OF NEW MODERN CLOTHES FROM NATIONAL FABRICS
M. M. Ulugboboyeva <https://it.academiasciencel.org/index.php/it/article/view/160>
<https://doi.org/10.17605/OSF.IO/VE2DG>
INNOVATIVE TECHNOLOGICA METODICAL RESEARCH JOURNAL.pdf.
4. Mavjudaxon Ulug'boboyeva. (2022). Development of the Concept of a Collection of Dresses from Khonatlas Fabric. Eurasian Journal of Engineering and Technology, 10, 121–124. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejet/article/view/2262>.
5. Published by :TRANS Asian Research Journals AJMR: Asian Journal of Multidimensional Research "Ways to solve problems in the production of knit wear M. M. Ulugboboyeva; X.Sh.Tursunova <http://tarj.in/images/download/ajm> AJMR-SEPTEMBER-2021-FULL-JOURNAL.pdf.
6. Ulugboboeva MM, & Usmanov R. (2022). Analysis of Problems in the Production of Knitted Products. Eurasian Journal of Physics, Chemistry and Mathematics, 12, 10–13. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejpcm/article/view/2567>.
7. Ulugbabayeva M.M., & Valiyevich, X. J. (2021). Research and analysis of physical and mechanical properties of the national fabric-adras. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 2(12), 77-88.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

8. Ulug‘boboyeva, M. M. (2022). Development of the Concept of a Collection of Dresses from Khonatlas Fabric. Eurasian Journal of Engineering and Technology, 10, 121-124.
9. Ulugboboyeva, M. M..From tradition to trend:craftingadress series with national satin fabrics. ISSN (E):2832-66JIF: 7.235.www.americanjournal.org.
10. Mirboboeva G., Isroilova N., Rakhmonova M. A COMPARATIVE ANALYSIS OF FLAX FIBRE FOR INDUSTRIAL APPLICATIONS //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 11-16.
11. Tursumatova S., Tursunov D., Isroilova N. Research on the Production of Special Clothing for Car Repair Workers, Taking into Account Human Ergonomic Characteristics //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – T. 17. – C. 204-209.
12. Isroilova N. ANALYTICAL STUDY AND FORMATION OF THE ASSORTMENT OF WOMEN'S LIGHTWEIGHT CLOTHING //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2025. – T. 3. – №. 6. – C. 445-451.
13. Isroilova N. RESEARCH ON THE PRODUCTION OF MEDICAL SUITS BASED ON FLAX FIBER FABRICS //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2025. – T. 3. – №. 6. – C. 405-409.